

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-10/3

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Alimov J.R. Til ixtisosligi bo'lmagan talabalarga ingliz tili nutqini shakllantirishda so'zlarni biriktirish ko'nikmalarini o'qitish jarayonida talabalar nutqining lingvistik to'g'riligini ta'minlash uchun tuzatish va takrorlash ishlarining texnologiyalari	124
Do'stmurodov G'.H. Bo'lajak ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarini adabiy talaffuzga o'rgatish usullari	127
Galiakberova A.R. Difficulties of terminology conversion in the electric power sphere	130
G'aniyeva G.I. Maktablarda biologiyani o'qitishning zamonaviy shakllaridan foydalanishning samarali yo'llari	132
Jakbarova M.I. O'quvchilarda nutq so'zlash ko'nikmalarini hosil qilish bosqichlari	135
Khurramova Ch.A. The role of reading text in the teaching foreign language at the initial stage	137
Mardieva D.R. Methodology for the development of reading comprehension skills in students of non-philological higher education	139
Mavlonova B.S. Talabalar liderligi – boshqaruv kompetensiyasining shakllanishini ilk ko'rinishi sifatida	142
Narmanov F.A. Tarix fanini o'qitishning ma'rifatli jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati	147
Qambarova M. Ko'zi ojiz talabalar uchun barcha turdagi nota adabiyotlari uchun umumiy belgilar va ularning qo'llanishi	149
Quliyeva Sh.H. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda metodik tizimning o'rni va mohiyati	152
Raxmatova M.U. Effective Methods for Teaching Abbreviations	154
Urazbaeva D.R. O'quvchilarda chet tillarini o'rgatishning ijtimoiy pedagogik, ijtimoiy kompetentlik shartlari	156
Yusupova M.A. Introverts vs extraverts: towards developing speaking skills in learning foreign languages	159
Ким С.Т. Самостоятельная работа и самообучение студента	164
Садуллаев С.М., Абдуллаев Д.М. “Ўртапишар қовун навларига ўстирувчи моддаларнинг экиш муддатларига таъсирини ўрганиш” мавзусини ўқитишда замонавий педагогик технологияларни қўллаш	167
Умарова Н.З. Ўзбек тили дарсларида ўқув топшириқларидан самарали фойдаланиш	172

1. Komil sidov "Musiqqa nazaryasi"
2. <https://www.your.com>
3. <https://hiddenshell.ru>
4. Academic Research in Educational Sciences, Multidisciplinory Scientific jurnal

UO'K 377.112.4+372.862+371.13

BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA METODIK TIZIMNING O'RNI VA MOHIYATI

Sh.H.Quliyeva, dots., Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Texnologik ta'lim o'qituvchisi o'ziga xos metodik tayyorgarlik talab etadigan soha hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimida olib boriladigan maxsus metodik tizimning pirovardida bo'lajak o'qituvchining kompetentligi shakllanib boradi. Mazkur maqola bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda qo'llaniladigan metodik tizim hamda uning ahamiyati tahliliga bag'ishlanadi.*

Kalit so'zlar: *Texnologik ta'lim, metod, o'qitish, metodik tizim, dars, ta'lim, texnologiya, bo'lajak o'qituvchi.*

Аннотация. *Преподаватель технологического образования – область, требующая специальной методической подготовки. Компетентность будущего учителя формируется в результате специальной методической системы, проводимой в системе высшего образования. Данная статья посвящена анализу методической системы, используемой в подготовке будущих учителей технологического образования и ее значению.*

Ключевые слова: *Технологическое образование, метод, обучение, методологическая система, урок, воспитание, технология, будущий учитель.*

Abstract. *The teacher of technological education is a field that requires special methodical preparation. The competence of the future teacher is formed as a result of the special methodical system carried out in the higher education system. This article is devoted to the analysis of the methodical system used in the training of future teachers of technological education and its importance.*

Key words: *Technological education, method, teaching, methodological system, lesson, education, technology, future teacher.*

Kirish. Respublikamizda ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoiy va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilayapti. Hozirgi davrda ishlab chiqarishda texnika va texnologiyalarning yangilanayotganligi, ilm va fan va metodik tizimning jadal taraqqiyoti mutaxassis kadrlardan o'z bilimlarini mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib, yangilab, to'ldirib va kengaytirib borishni talab etadi. Insonning ma'lum bir kasb-hunarga ega bo'lib yetilishida yoki uning ikkinchi bor dunyoga kelishida, xususan, biz tadqiqotlarimizda so'z yuritayotgan holda bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirish texnologiyalarini loyihalashning roli va ahamiyati beqiyos hisoblanadi.


Adabiyotlar sharhi. AQShda 1895-yili, Amerikaga qancha paxta va u nima uchun kerak, uni amalga oshirish uchun nima qilish zarur, degan masala jiddiy qo'yilgan edi. Masala g'oyasiga ko'ra "Yagona universal texnologiya" yaratish muammosi olg'a surildi. Qo'yilgan muammoga mos holda AQShning barcha har xil soha, tarmoqlaridagi yetuk olim, ishchi va mutaxassis (fizika, ximiya, biologiya, matematika, harbiy texnika va h.k.) lari yagona maqsad sari birlashtirildi va 25 yillik zo'r ijodiybirgalikda ishlashlaridan keyin 1920-yilda ko'zlangan maqsadga erishildi. Hozirgacha ham ana shu metodik tizim og'ishmay amalga oshirib kelinmoqda.

Germaniyada bundan 34 yil muqaddam 1988 yil 6-8 sentabr kunlari bo'lib o'tgan (Magdeburg shahri) "Kasbga yo'naltirish muammolari bo'yicha konferensiya"ni olaylik. Konferensiyada har bir korxonada, tashkilot, sanoat vaxokazolarga qancha kadr kerak, ta'lim tizimida qancha yoshlar o'qimoqda, ularningnecha foizi qaysi kasbga qiziqadi, ijtimoiy o'sish jarayoni va har

bir o'quvchi yoki talabani o'qishni bitirgach ish joyi bilan ta'minlash kafolatlarining istiqboldagi rejasi va tashxisi ishlab chiqilib muxokama qilindi. Ana shu asosda doimiy ishlaydigan (Magdeburg va Berlinda) kasbga yo'llash markazi (8 ta pedagog, 2 nafar psixolog va 2 ta laborantdan iborat) tuzilgan edi.

Aytilganlardan ko'rinadiki, loyihalash texnologiyasi pedagogik ta'lim tizimidagi "integratsiya", "interfaol", "fanlararo aloqadorlik" kabi ko'plab tushuncha, uslub va metodik tizimlardan bir muncha keng ma'noga ega.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Kasbga yo'naltirish loyihasida uning istiqbolli tizimi konsepsiyasi elementlari va imkoniyatlari xuddi AQShdagi "Yagona universal texnologiya" singari Respublika miqyosida shakllantiriladi. Bu loyihani kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishning birinchi bosqichi deyish mumkin. Quyidagiuning sxemasi keltirilgan (1-shakl).



1-shakl. Kasbga yo'naltirishning yagona istiqbolli tizimi konsepsiyasi elementlari va imkoniyatlari loyihasi

Bu loyiha bir qator muhim pedagogik masalalarni hal etish imkonini beradi. Bu masalalarni funksional ravishda uchta: a) ta'limiy; b) tarbiyaviy; v) amaliy guruhlariga ajratish mumkin.

Yuqorida talabalar kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishni darsda va darsdan tashqaridagi nazariy va metodik tizimlar hamda pedagogik amaliyot davrlarida amalga oshirish mumkinligi va ularning turli shakllari ifodalangan. Har qanday ijodkorlik ishi (hox nazariy, hox amaliy bo'lsin) natijalari shaxsning ijodiy kamol topishida ma'lum ijobiy samaraga ega bo'ladi. Ular o'z navbatida, chuqur fikrlashni, tafakkurni, fundamental va individual bilimlarni, amaliy masalalarni faollashtiruvchi muhim vositava kasbiy bilim olishning muhim shakli bo'lib, unda talabalarning kasbiy ko'nikma va malakalari shakllanadi, fan va texnika yutuqlari bilan tanishish, referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi yozish, tadqiqotchilik, ixtirochilik kabi ko'nikma va malakalari ham har tomonlama rivojlanadi va takomillashadi. Bu jarayon metodik tizimning muhim bo'lagi bo'lib xizmat qiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bizningcha mazkur loyihalash texnologiyasini asosiy uslubi, maqsadi va shartlari quyidagilardan iborat [3]:

- 1) Ta'lim faoliyati motivini kuchaytirish;
- 2) Murakkab vaziyatli muammolar yechimini qabul qilishda eng muvofiq (optimal) variantini oqilona tanlashni shakllantirish;
- 3) Ta'lim jarayonini individuallashtirish va pog'onalashtirish (differensil yondoshuv).

Natijalar. Metodik tizimning tarkibiy qismlarini tahlil etganda quyidagilarni inobatga olish lozim:

Faoliyat motivi - bu ehtiyojni qondirish uchun uning predmeti bilan amalga oshiriladigan hatti-harakat bo'lib, u yoki bu ehtiyojni ta'minlashga yo'naltirilgan ongli faoliyatga insonni yo'naltiradi. Demak talabalar kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishda faoliyat motivlarini o'zlashtirishi muhim.

Motivni manbalarda “Motiv deganda psixologiyada o‘quvchilarni hatti– harakatlarga undaydigan sabablar tushuniladi. Motivlarning shakllanishiga talablar va instinktlar, mayllar hamda emotsiyalar, yo‘l tutishlar, g‘oyalar va qiziqishlar ta’sir etadi” deb ta’riflangan [1,202-bet]. Rubnshteyn S.A. faoliyat motivini “faoliyatning eng muhim motivi ana shu faoliyat natijasining ijtimoiy-foydali ahamiyatidir”-deb izoxlagan [2,642-bet].

Xulosa va munozara. Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga oid yuqorida ta’kidlangan bandlardan iborat boshlang‘ich asoslari, maqsadi va shartlarining birinchi sharti mohiyatidan keltirib chiqib xulosa o‘rnida umumiy loyihalash texnologiyasi rejalashtirilgan faoliyati va bosqichlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- o‘quv dasturlari asosida har bir fan bo‘yicha kalendar-tematik reja bo‘yicha muvofiqlashtirish;
- texnologiyani tekshirish (aprobatsiya) uchun kerakli kompozitsiya va diagnostika materiallarini tanlashni ilmiy asosda amalga oshirish (testlar, anketalar, so‘rovnomalalar, dars konspektlari mazmunini);

- talabalarni mustaqil ishlarini tashkil qilish va amaliy-ishlash sharoitini yaratish;

- o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi ijobiy munosabatlarni shakllantirish majmualaridan iborat faoliyatlarni amalga oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Razumovskiy V.G.(2014) Texnologiyani o‘qitish metodikasi asoslari. Toshkent. O‘qituvchi. 202-bet.
2. Rubnshteyn S.A. (2016) Umumiy psixologiya asoslari. Moskva.Uchpedgiz.1946. 642 – tikish URL manzili: http://yanko.lib.ru/books/psycho/rubinstein=basics_obzheim_psc.pdf
3. Ismoilov T.D., Tagaev X., Nizomov Sh.Sh., Suyunov U. (2019) Ijodiy shaxsni takomillashtirishning pedzagogik asoslari. Volga pedagogik izlanish (ilmiy jurnal) 2-son (28) 104-111-betlar. URL:https://www.ulspu.ru/science/project-crossref/archive/Ismailov_TD_TagaevH_NizamovSS_SuyunovUD_2_28_2019.pdf
4. Tagaev X. va boshqalar (2016 y.) Darsda ilmiy tushunchalarni rivojlantirish va o‘quvchilarning o‘z bo‘lajak kasbiga qiziqishini oshirish. Yosh olim. № 3 (107). URL: <http://moluch.ru/archive/107/25650/>.
5. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi [Matn] : o‘quv qo‘llanma / Z.D. Rasulova, Sh.H. Quliyeva, A.R. Jo‘rayev.- Buxoro: OOO “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2021. - 384 b.
6. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Qo‘ysinov O.A. Gaipova N.S. (2014) Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Metodik qo‘llanma. Toshkent. TDPU. 112 b.
7. Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash [Matn]: o‘quv qo‘llanma / H.O.Uzoqov, H.O.Jo‘rayev, SH.H.Quliyeva, A.R.Jo‘rayev, M.N.Karimova, D.P.Nazarova. - Buxoro: “Kamolot” nashriyoti, 2022. - 210 b.

UDC 371.31

EFFECTIVE METHODS FOR TEACHING ABBREVIATIONS

M.U.Raxmatova, researcher, Uzbekistan State World Languages University, Tashkent

Annotatsiya. Maqolaning maqsadi talabalarga qisqartmalarni o‘rgatish san‘atiga moslashtirilgan bir qator samarali usullarni o‘rganishdir. Ushbu usullar bugungi ta’lim landshaftini qamrab oluvchi turli xil ta’lim uslublari, imtiyozlari va ehtiyojlari bilan rezonanslash uchun mo‘ljallangan. Qisqartmalar uzoq so‘zlarni yoki iboralarni qisqaroq shakllarga qisqartiradi va samarali muloqotni osonlashtiradi. Talabalar uchun qisqartmalardan foydalanish va tushunish san‘atini egallash ularning yozma va og‘zaki til ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ushbu maqola qisqartmalardan tashqarida, nafaqat tanishlikni, balki oqilona qo‘llash san‘atini ham rivojlantiradigan pedagogik strategiyalarning chuqurligini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: qisqartmalar, qisqartmalar, samarali usullar, mnemonika, ko‘rgazmali qurollar, boshqotirmalar, infografika, tanqidiy fikrlash.

Аннотация. Цель статьи — изучить ряд эффективных методов, адаптированных к искусству преподавания студентам аббревиатур. Эти методы разработаны так, чтобы соответствовать разнообразным стилям обучения, предпочтениям и потребностям, которые охватывают сегодняшнюю образовательную среду. Аббревиатуры объединяют длинные слова или фразы в более короткие формы, облегчая эффективное общение. Владение искусством использования и понимания сокращений может значительно улучшить навыки письменной и устной речи учащихся. Эта статья выходит за рамки сокращений, углубляясь в глубины педагогических стратегий, которые не только способствуют знакомству, но и способствуют искусству разумного применения.